

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV YUSUFJON ESHQOBILOVICH

**BA'ZI 3d-METALLARNING TARKIBIDA AZOT, KISLOROD BO'LGAN
LIGANDLAR BILAN KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, KRISTALL
TUZILISHLARI VA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

02.00.01 - Noorganik kimyo

02.00.04 - Fizik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2024

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Nazarov Yusufjon Eshqobilovich

Ba’zi 3d-metallarning tarkibida azot, kislorod bo‘lgan
ligandlar bilan kompleks birikmalari sintezi, kristall
tuzilishlari va fizik-kimyoviy xossalari.....3

Назаров Юсуфжон Эшкobilович

Синтез, кристаллическая структура и физико-химические
свойства комплексных соединений некоторых
3d-металлов с азот, кислородсодержащими лигандами..... 21

Nazarov Yusufjon Eshkobilovich

Synthesis, crystal structure and physicochemical
properties of complex compounds of some 3d-metals
with nitrogen, oxygen containing ligands.....39

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV YUSUFJON ESHQOBILOVICH

**BA'ZI 3d-METALLARNING TARKIBIDA AZOT, KISLOROD BO'LGAN
LIGANLAR BILAN KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, KRISTALL
TUZILISHLARI VA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

02.00.01 - Noorganik kimyo

02.00.04 - Fizik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K715 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.terdu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Turayev Xayit Xudaynazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Ashurov Jamshid Mengnorovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro'zimuradov Olim Narbekovich
Kimyo fanlari doktori, professor

Razzoqova Surayyo Razzoqovna
Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.04.2022.K.78.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil «05» 10 soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№25 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «19» 09 kuni tarqatildi.

(2024-yil «19» 09 daqiqa 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Z. Yaxshiyeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

Y.A. Geldiyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, k.f.d.

O.N. Ro'zimuradov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida biologik faol ligandlarning oraliq metallar bilan olingan kompleks birikmalari tibbiyotda turli xildagi kasalliklarni davolashda, qishloq xo'jaligida esa fungitsidlar, gerbitsidlar va pestitsidlar sifatida qo'llanilmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olib, tarkibida azot va kislorod bo'lgan ligandlarning ba'zi 3d-metallar bilan komplekslarini sintez qilish, ularning tarkibi, tuzilishi, biologik faolliklarini tadqiq etish hamda sintez qilingan kompleks birikmalar ishtirokida qishloq xo'jaligida va tibbiyotda foydalanishga qulay bo'lgan preparatlar sintez qilish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda oraliq metallarning biologik faol bo'lgan ligandlar bilan komplekslari sintezi, ularning kristall tuzilishlari va biologik faolliklarini aniqlash yuzasidan keng miqyosdagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, 3d-metallarning tarkibida azot va kislorod bo'lgan ligandlar, xususan, 8-oksixinolinning bilan kompleks birikmalari sintezi, ularning tarkibi, molekulyar va kristall tuzilishlari, kvant-kimyoviy parametrlari, kristallaridagi molekulalararo ta'sirlashtirish energiyalari va boshqa fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallarini ishlab chiqarish yo'nalishida qator natijalarga erishilmoqda. Shu jumladan mahalliy bozorni import o'rnini bosuvchi reagentlar bilan ta'minlashda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarni tadqiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida¹ iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan va "mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan kimyo sanoatini rivojlantirishda biofaol xususiyatga ega bo'lgan kompleks birikmalar sintez qilish va tadqiq etishga keng e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida tarkibida azot va kislorod bo'lgan ligandlardan 8-oksixinolinning oraliq metallar bilan komplekslarini sintez qilish, fazoviy tuzilishi hamda biologik faolligini aniqlash bo'yicha R.Cherdtrakulkiat, S.Boonpangrak, N.Sinthupoom, S.Prachayasittikul, S.Ruchirawat, V. Prachayasittikul, Q.P. Qin, Z.F. Chen, J.L.Qin, X.J. He, Y.L. Li, Y.C. Liu, K.B. Huang, Liang va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. MDH mamlakatlarida N.T. Kuznesov, Ye.V.Antipov, A.P. Gulya, V.I. Pexnko, G.V. Sinsadze boshchiligidagi olimlarning ilmiy guruhlari va maktablari shug'ullanishgan. Olimlar tomonidan kompleks birikmalarning tuzilishi, tarkibi, xossasi va biologik faolligi bo'yicha bir qancha ishlarning tahlili amalga oshirilgan. Kembrij kristallografik ma'lumotlar markazi (CCDC-2023) ma'lumotlar bazasining tahliliga ko'ra, bugungi kunga qadar 100 dan ortiq 8-oksixinolinning 3d- metallari bilan komplekslari o'rganilgan.

Mamlakatimizda kompleks birikmalarning sintezi, tuzilishi va xossalari tadqiqot ishlari bilan akademiklar N.A. Parpiyev, B.T. Ibragimov, professorlar: X.X. Xakimov, X.T. Sharipov, O.F. Xodjayev, T.A. Azizov, A.A. Shabilolov, B.B.Umarov, X.X. Turayev, Sh.A. Kadirova, Z.Ch. Kadirova, Sh.Sh. Daminova, A.B. Ibragimov, J.M. Ashurov va Sh.A. Kasimov kabi olimlar shug'ullanganlar.

Shu bilan birga adabiyot manbalari tahlilining ko'rsatishicha, 8-oksixinolin (8-HQ)(C₉H₇NO) hosilalarining d-metallar bilan kompleks birikmalarini tahlil qilish bo'yicha keng miqyosda tajriba natijalari bo'lishiga qaramasdan, d-metallar-ning 8-HQ bilan metall komplekslari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli, 8-HQ asosida kompleks birikmalarni sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy xossalari, biologik faolligini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F-7-28 "To'rtlamchi azot va fosfor birikmalari asosida binar ekstragentlar sintezi va ularning nodir metallar bilan koordinatsion birikmalari" (2012-2016 yy) va OT-F7-34 "Kompleks hosil qiluvchi polifunksional ionitlar sintezi va ular yordamida ba'zi d-metallarni ajratishning nazariy asoslari" (2017-2020 yy) mavzusidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ba'zi 3d-metallarining tarkibida azot va kislorod bo'lgan ligandlar bilan kompleks birikmalari sintezi, ularning kristall tuzilishlari, kvant-kimyoviy parametrlari, molekulararo ta'sirlashish energiyalari va fizik-kimyoviy xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarkibida azot, kislorod bo'lgan ligandlarning Co(III), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Fe(III) ionlari bilan kompleks birikmalarini sintez qilish hamda ularning monokristallarini olish;

olingan kompleks birikmalarning tuzilishi, tarkibi hamda fizik-kimyoviy xossalari zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish;

olingan kompleks birikmalarning termik barqarorligini aniqlash;

sintez natijasida olingan kompleks birikmalarning reaksiya qobiliyati, ta'sirlashish energiyalari, elektron tuzilishlarini kvant-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilish;

olingan kompleks birikmalarning dielektrik singdiruvchanligi va solvatlanish jarayonidagi termodinamik parametrlari (ΔH , ΔG va ΔS) ning o'zgarishlarini aniqlash;

sintez qilingan kompleks birikmalarning biologik faolliklarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti Co(III), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Fe(III) ionlarining tarkibida azot va kislorod bo'lgan biofaol ligandlar bilan kompleks birikmalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tarkibida azot va kislorod bo'lgan biofaol ligandlarning ba'zi 3d-metallar bilan kompleks birikmalarining sintezi, tarkibi, kristall tuzilishi, fizik-kimyoviy va biologik xossalari aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari olingan kompleks birikmalarning tarkibi va tuzilishini aniqlashda rentgen tuzilishi tahlili (RTT), element tahlili, IQ va Raman spektroskopiyasi, termik (TG va DTA), kvant-kimyoviy hisoblash va biologik faolligini aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Co(III), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Fe(III) metall ionlarining 8-oksixinolin, etilendiamin, dietanolamin, 2,6-piridindikarbon kislota bilan 8 ta yangi aralash ligandli kompleks birikmalari sintez qilingan va ularning monokristallari olingan;

RTT yordamida olingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va metall ionlarining ligand donor atomlari bilan koordinatsiyalanish qonuniyatlari hamda oktaedr, tetraedr va simmetrik tetragonal piramida shaklida komplekslar hosil bo'lishi aniqlangan;

SRSM (o'tkazuvchilarga o'xshash qutblanuvchan muhit modeli) usuli bilan $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$, $[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleks birikmalar termodinamik parametrlarining erituvchilar ta'sirida o'zgarishi aniqlangan;

sintez qilingan kompleks birikmalarda Hirshfeld sirt tahlili natijasida H...H, H...C/C...H, O...H/H...O ta'sirlarining ulushi va kristallardagi molekulararo ta'sirlashish energiyalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarkibida azot va kislorod bo'lgan ligandlarning Co(III), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Fe(III) kabi metall kationlari bilan kompleks birikmalarini sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

olingan kompleks birikmalarning biologik faolliklari aniqlangan va tarkibida Cu(II) ioni bo'lgan kompleks birikma dezinfektsiyalash vositalarining samaradorligini oshirishda qo'shimcha sifatida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tarkibida azot, kislorod bo'lgan ligandlar asosida sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalari RTT, element tahlili, termik tahlil, IQ, Raman spektroskopiyasi, biologik

tahlil hamda kvant-kimyoviy hisoblash kabi tadqiqot usullari bilan isbotlangan, xulosalar tajriba natijalarining tahlili bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarkibida azot va kislorod bo‘lgan ligandlarning Co(III), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Fe(III) ionlari bilan yangi kompleks birikmalari sintez qilinganligi, ularning monokristallar shaklida ajratib olinganligi, kristall tuzilishlari, molekulalararo ta’sirlashish energiyalari hamda kvant-kimyoviy parametrlarining aniqlanganligi, shuningdek, ular fizik-kimyoviy xossalarning zamonaviy tahlil usullari asosida tadqiq qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$, $[(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2][\text{C}_2\text{H}_{10}\text{N}_2]$, $[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2\text{C}_4\text{H}_{11}\text{NO}_2]\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$, $[(\text{C}_9\text{H}_8\text{NO})_2][\text{C}_{10}\text{H}_6\text{S}_2\text{O}_6](\text{H}_2\text{O})_4$, $[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_5\text{NO}_4)(\text{Cl})_3]\text{C}_9\text{H}_8\text{NO}(\text{H}_2\text{O})_2$ kompleks birikmalarining kristallografik ma’lumotlari Kembrij kristallografik ma’lumotlar bazasi (Cambridge Crystallographic Data Center) ga kiritilganligi taqdim etilgan ma’lumotlardan foydalanib o‘xshash birikmalarni sintez qilishga, tuzilishini tavsiflashga, dezinfeksiyalovchi vositalarga qo‘shilganda ularning ta’sir samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tarkibida azot va kislorod bo‘lgan ligandlarning ba’zi 3d-metallar bilan kompleks birikmalari sintezi va ularning kristall tuzilishlarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

$[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$, $[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2\text{C}_4\text{H}_{11}\text{NO}_2]\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$, $[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_5\text{NO}_4)(\text{Cl})_3]\text{C}_9\text{H}_8\text{NO}(\text{H}_2\text{O})_2$, $[(\text{C}_9\text{H}_8\text{NO})_2][\text{C}_{10}\text{H}_6\text{S}_2\text{O}_6](\text{H}_2\text{O})_4$, $[(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2][\text{C}_2\text{H}_{10}\text{N}_2]$ tarkibli kompleks birikmalarining rentgen tuzilish tahlili natijalari Kembrij kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan (The Cambridge Structural Database, CCDC depozit raqami 2232766, 2256725, 2307011, 2307012, 2256736, 2256744). Natijada, ma’lumotlar bazasiga kiritilgan kimyoviy birikmalarining taqdim etilgan ma’lumotlaridan o‘xshash birikmalarni sintez qilish va ularning tuzilishini tavsiflashda foydalanish imkonini bergan;

8-oksixinolinning Cu(II) ioni saqlagan aralash ligandli kompleks birikmasining 0,04% li eritmasi “NOVA FARM” MChJ O‘zbekiston-Hindiston qo‘shma korxonasida dezinfeksiyalovchi vositalar tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan (“NOVA FARM” MChJ O‘zbekiston-Hindiston qo‘shma korxonasining 2024-yil 17-apreldagi 20-son ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori samarali dezinfeksiyalovchi vositalar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 17 ta, jumladan 6 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ishlar, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan 5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, uning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar chiqarilgan hamda chop ettirilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarkibida azot va kislorod bo‘lgan ligandlarning 3d-metallari bilan kompleks birikmalari”** deb nomlangan birinchi bobida 8-oksixinolin ishtirokidagi kompleks birikmalarning sintezi, molekulyar va kristall tuzilishlari, xossalari va biologik faolligining qo‘llanish sohalari hamda fizik-kimyoviy xossalari bo‘yicha adabiyot manbalari batafsil tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko‘ra xinolin halqasidagi azot va gidroksil guruhidagi kislorod hisobiga metallar bilan bidentantli komplekslar xosil qiladi.

Dissertatsiyaning **“Tarkibida azot, kislorod bo‘lgan ligandlarning kompleks birikmalari sintezi va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida dissertatsiya tadqiqoti doirasida foydalanilgan asboblardan, qo‘llanilgan usullar tavsifi, kompleks birikmalar sintezi, element tahlili, suyuqlanish haroratini aniqlash yoritilgan.

Ni(II)ning 8-oksixinolin va dietanolamin bilan aralash ligandli kompleks birikmasi sintezi. $\text{NiCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ va 8-oksixinolinni tegishli suv va etil spirtida eritib, 1:2 mol nisbatdagi eritmalar tayyorlandi. Eritmaga DEA eritmasidan tomizildi. Mexanik aralash tirgich yordamida 60°C da 30 minut davomida intensiv aralash tirildi. Eritma xona haroratida qoldirildi. Natijada 14 kundan so‘ng idish tubida och yashil rangli kompleks birikma monokristali o‘sganligi kuzatildi. Kristallar RTT da tekshirilganda $[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2\text{C}_4\text{H}_{11}\text{NO}_2]\text{H}_2\text{O}$ tarkibli ekanligi aniqlandi. Reaksiya tenglamasi 1-sxemada keltirilgan. Ushbu usulda sintez qilingan kompleks birikmalarning element tahlili natijalari 1-jadvalda keltirilgan.




1-sxema. $[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2\text{C}_4\text{H}_{11}\text{NO}_2]\text{H}_2\text{O}$ kompleksi hosil bo‘lish reaksiyasi.

Olingan kompleks birikmalar tarkibining element tahlili

Kompleks birikma	Unum, %	T _{suy} , °C	Rangi	Hisoblangan,%			Topilgan,%		
				C	N	M	C	N	M
(C ₉ H ₇ NO) (ligand)		75	Och sariq	74.45	9.65		74.45	9.65	
[Co(C ₉ H ₆ NO) ₃] C ₂ H ₄ O ₂	76	192	Jigar rang	63.14	7.62	10.70	63.08	7.57	10.65
[Ni ₂ (C ₉ H ₆ NO) ₂ (N O ₃) ₂ (H ₂ O) ₂]	72	198	Och yashil	38.17	9.89	20.49	38.11	9.86	20.46
[Cu(C ₇ H ₅ NO ₄)(Cl) ₃]C ₉ H ₈ NO(H ₂ O) ₂	78	187	Och ko'k	36.94	5.38	12.28	36.88	5.28	12.28
[Zn(C ₉ H ₆ NO) ₂ (H ₂ O) ₂]	80	188	Rang-siz	55.51	7.19	16.70	55.48	7.15	16.67
(C ₉ H ₈ NO) ₂ [FeCl ₄] Cl	76	191	Och yashil	41.09	6.09	10.65	41.05	5.32	10.62
[Ni(C ₉ H ₆ NO) ₂ C ₄ H ₁₁ NO ₂](H ₂ O)	79	189	Och yashil	56.50	8.28	12.41	56.47	8,96	12.38
[(C ₉ H ₆ NO) ₂] C ₂ H ₁₀ N ₂]	78	123	Sariq	68.54	15.99		68.48	15.94	
[(C ₉ H ₈ NO) ₂][C ₁₀ H ₆ S ₂ O ₆](H ₂ O) ₄	79	130	Sariq	51.67	4.30		51.59	4.26	

Dissertatsiyaning “**Olingan kompleks birikmalarning kristall tuzilishlari va fizik-kimyoviy xossalari**” deb nomlangan uchinchi bobida 8-oksixinolinning Co(III), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Fe(III) ionlarining kompleks birikmalari RTT (rentgen tuzilishi tahlili), IQ va Raman spektroskopiya va termik tahlil usullari yordamida tahlil qilindi. Tahlillar asosida sintez qilingan birikmalarning strukturalari keltirildi, sintez qilingan yangi kompleks birikmalarning biologik faolligi va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari keltirildi.



1-rasm. [Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ kompleksining molekulyar tuzilishi.


Ushbu kompleks birikmada Co ning koordinatsion soni 6 ga teng bo'lib, sp³d² holatida gibridlangan. [Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ kompleks birikmasining singoniyasi monoklinik bo'lib, kristallarning elementar yacheykasi parametrlari quyidagicha: fazoviy guruhi P21/n, a=11.749 Å, b=12.887Å, c=16.595Å, a= 90°, β=96.556 (2)°,

$y = 90^\circ$, $V = 2496.40(9) \text{ \AA}^3$, $Z = 11$, $T = 293 \text{ K}$. Co1-O1 1.907 \AA , Co1-N1 1.944 \AA ga tengdir. Co1-O1-C1 bog'lar orasidagi burchak 119.95 ($^\circ$), C1-C9-N1 115.53 $^\circ$, O1-Co1-N1 85.54 $^\circ$.

2-jadval.


Sintez qilingan kompleks birikmalarning kristallografik ma'lumotlari

Parametrlar	Kompleks birikmalar							
	$[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$	$[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{C}_4\text{H}_{11}\text{NO}_2)]\text{H}_2\text{O}$	$[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO})_3]_2(\text{H}_2\text{O})_2$	$(\text{C}_9\text{H}_8\text{NO})_2[\text{FeCl}_4]\text{Cl}$	$[(\text{C}_9\text{H}_8\text{NO})_2[\text{C}_{10}\text{H}_6\text{S}_2\text{O}_6](\text{H}_2\text{O})_4]$	$[(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2[\text{C}_2\text{H}_{10}\text{N}_2]]$	$[\text{Zn}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$	$[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_5\text{NO}_4)(\text{Cl})_3]\text{C}_9\text{H}_8\text{NO}(\text{H}_2\text{O})_2$
Mr	551.42	467.18	566.14	525.628	650.24	350.176	389.13	519.64
R-fac.%	4.37	4.81	4.62	4.67	2.8	3.12	3.4	4.58
Singoniya	Mono-k	Mono-k	Mono-k	Triklirik	Mono-k	Mono-k	Mono-k	Triklirik
Faz.gur	P21/n	P21/n	P2 ₁ /c	P $\bar{1}$	P 2 ₁ /n	P 2 ₁ /c	P 2 ₁ /c	P 2 ₁ /c
a, \AA	11.749	7.276	8.278	7.592	7.555	14.194	5.44	8.474
b, \AA	12.887	27.1984	16.890	10.188	12.166	6.9371	11.18	9.784
c, \AA	16.595	11.126	7.4194	14.233	16.004	8.8419	38.04	12.909
α°	90	90	90	86.445	90	90	90	77.26
β°	96,55	100.580	92.8	86,996(6)	94,71	95.131	102	89.20
γ°	90	90	90	84,726	90	90	90	78.02
V,	2496.4	2164.82	2163.7	1092.99	1466.863	867.2	2314	1020.74
Z	4	4	4	1	2	4	2	2



2-rasm. Sintez qilingan kompleks birikmalarning molekulyar tuzilishi.

- a) $[\text{Ni}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{C}_4\text{H}_{11}\text{NO}_2)]\text{H}_2\text{O}$, b) $[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$,
s) $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$, d) $(\text{C}_9\text{H}_8\text{NO})_2[\text{FeCl}_4]\text{Cl}$, e) $[\text{Zn}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$,
j) $[(\text{C}_9\text{H}_8\text{NO})_2[\text{C}_{10}\text{H}_6\text{S}_2\text{O}_6](\text{H}_2\text{O})_4]$, k) $[(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2][\text{C}_2\text{H}_{10}\text{N}_2]$,
l) $[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_5\text{NO}_4)(\text{Cl})_3]\text{C}_9\text{H}_8\text{NO}(\text{H}_2\text{O})_2$



3-rasm. [Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ kompleks birikmasi IQ -spektri tahlili.


Ushbu kompleksning IQ-spektri tahlili natijasiga ko'ra, 3385.07 cm^{-1} sohasida OH-guruhiga xos intensivligi juda yuqori bo'lgan valent tebranish, 1109.07 cm^{-1} sohasida C-O guruhiga tegishli valent tebranishlar, 1570.06 cm^{-1} sohasida xinolin xalqasining valent tebranish, 1280.73 cm^{-1} sohasida -C-N bog'ining valent tebranish, 599.86 cm^{-1} sohasida Me-O bog'iga xos, 561.29 cm^{-1} sohasida Me-N bog'iga xos valent tebranish chastotalari kuzatildi.

3-jadval.

Sintez qilingan kompleks birikmalarning IQ-spektri tahlili, cm^{-1}

Tebranish tavsifi	OH	C-O	Xinolin xalqa	C-N	M-O	Me-N
C ₉ H ₇ NO	3049.46	1093.64	1579.70	1273.02	-	-
[Co(C ₉ H ₆ NO) ₃]C ₂ H ₄ O ₂	3385.07	1109.07	1570.06	1280.73	599.86	561.29
[Ni(C ₉ H ₆ NO) ₂ C ₄ H ₁₁ NO ₂](H ₂ O)	3163.26	1070.49	1575.84	1282.66	609.51	567.07
[Ni ₂ (C ₉ H ₆ NO) ₂ (NO ₃) ₂ (H ₂ O)]	3188.33	1093.64	1570.70	1286.52	688.59	659.66
[Cu(C ₇ H ₅ NO ₄)(Cl) ₃]C ₉ H ₈ NO (H ₂ O) ₂	3385.07	1109.07	1552.70	1301.95	684.73	619.15
(C ₉ H ₈ NO) ₂ [FeCl ₄]Cl	3307.92	1083.99	1550.77	1296.16	-	(Me-Cl) 636.51
[Zn(C ₉ H ₆ NO) ₂ (H ₂ O) ₂]	3332.99	1107.14	1575.84	1282.66	663.51	640.37
[(C ₉ H ₈ NO) ₂][C ₁₀ H ₆ S ₂ O ₆](H ₂ O) ₄	3348.42	1103.28	1558.43	1280.73	-	-
[(C ₉ H ₆ NO) ₂][C ₂ H ₁₀ N ₂]	3566.38	1093.64	1589.34	1265.30	-	-

(C₉H₈NO)₂[FeCl₄]Cl kompleksning Raman spektroskopiyasi tahlili



Ошибка! Источник ссылки не найден.


b

4-rasm. (C₉H₈NO)₂[FeCl₄]Cl kompleks birikmasining kukun holati (a) va eritmasining (b) Raman spektri.

Tahlil natijasiga ko'ra (4-rasm), kompleks kristalining kukun va eritma holatdagi OH- bog'ining valent tebranishi tufayli yuzaga kelgan tebranish mos ravishda 3223.19 cm^{-1} , 3278.15 cm^{-1} sohasida yuzaga kelgan. Kukun holatida 1580.16 cm^{-1} sohada xinolin halqasiga tegishli halqa tebranishi kuzatilgan bo'lsa, eritma holatida esa 1578.43 cm^{-1} sohada yuzaga kelgan. Halqadagi C-H bog'ining valent tebranishi tufayli ikkala holatda ham bir xil 741.43 cm^{-1} sohada yuzaga kelgan bo'lsa, Me-Cl bog'i tegishli tebranishlar esa 334.82 cm^{-1} va 334.36 cm^{-1} sohada kuzatildi. Kompleks kristalining kukun va eritma holatdagi halqa va boshqa tebranish chastotalari deyarli yaqin sohalarda kuzatildi. Bu eritmada kompleksning parchalanib ketmasligini bildiradi.

[Ni(C₉H₆NO)₂C₄H₁₁NO₂]₂H₂O kompleks birikmasining termik (TG, DTA) tahlili

Kompleks kristalining termik tahlili uchun 2.62 mg olinib, jarayon 800°C gacha haroratda olib borildi. [Ni(C₉H₆NO)₂C₄H₁₁NO₂]₂H₂O kompleksining termogravimetrik egri chizig'i tahlili shuni ko'rsatadiki, TG egri chizig'i asosan 4 ta intensiv massa yo'qotiladigan harorat oraliq'ida amalga oshadi. 1-massa yo'qotiladigan oraliq $30.6 - 84.30^{\circ}\text{C}$ haroratga, 2 – oraliq $84.30 - 247.78^{\circ}\text{C}$ haroratga, 3 – oraliq $247.78 - 404^{\circ}\text{C}$ haroratga, 4-massa yo'qotiladigan oraliq esa $404 - 800.94^{\circ}\text{C}$ haroratga mos keladi. 1- massa yo'qotilishi 0.218 mg, ya'ni 8.324% suv bug'larining, 2 – massa yo'qotilishining asosiy miqdori 0.230 mg, ya'ni 8.782% kompleks birikma tarkibidagi dietanolaminning chiqib ketishi, 3 – massa yo'qotilishi 1.275 mg kompleks birikmadagi oksixinolinning chiqib ketishi hisobiga, 4 – massa yo'qotilishi 0.226 mg, 8.629% jarayon so'ngida NiO ning qolishi bilan tushuntiriladi. Shular bilan birgalikda DTA grafigida 68.09°C va 330.83°C larda endotermik effekt kuzatildi. Bu endotermik effektlar massa kamayashida issiqlikning yutilganligini bildiradi (5-rasm).



5-rasm. [Ni(C₉H₆NO)₂C₄H₁₁NO₂]₂H₂O kompleks birikmasining termogravimetrik (TG) va differensial termik tahlili (DTA).

[Ni(C₉H₆NO)₂C₄H₁₁NO₂]H₂O kompleksining TG va DTA egri chizig‘i natijalari tahlili

No	Harorat, °C	Yo‘qotilgan massa, mg (2.62)	Yo‘qotilgan massa, %	Sarflangan energiya miqdori (μV* s/mg)	Sarflangan vaqt (min)	dw (mg)	dw/dt (mg/min)
1	100	0.25	9.39	16.19	7.76	2.37	0.031
2	200	0.43	16.3	18.02	17.78	2.19	0.024
3	300	0.53	20.15	16.01	27.8	2.09	0.019
4	400	1.72	65.5	11.95	37.93	0.90	0.045
5	500	1.08	68.77	7.02	48.11	0.82	0.037
6	600	1.84	70.07	3.95	58.37	0.78	0.031
7	700	1.89	72.44	0.68	68.67	0.72	0.028
8	800	1.95	74.42	2.41	79.07	0.67	0.025

Dissertatsiyaning “**Olingan kompleks birikmalarning kvant-kimyoviy hisoblashlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida 8-oksixinolin hamda uning aralash ligandli kompleks birikmalarining kvant-kimyoviy hisoblash natijalari, zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqotlari keltirilgan. Kvant-kimyoviy tahlillar yordamida 8-oksixinolinning kompleks birikmalarining elektron tuzilishi ORCA 5.03 dasturiy paketi yordamida DFT usulida o‘rganilib, nazariy ko‘rsatkichlar asosida elektronodonor va elektronoakseptor markazlari aniqlandi. Bundan tashqari molekulararo ta’sirlashish energiyalari hisoblandi va Hirshfeld sirti tahlili o‘tkazildi.

[Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ va [Ni₂(C₉H₆NO)₂(NO₃)₂(H₂O)₂] kompleks birikmalarining elektron tuzilishini DFT usulida nazariy tahlili.

[Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ va [Ni₂(C₉H₆NO)₂(NO₃)₂(H₂O)₂] komplekslarining boshlang‘ich geometriyasi RTT ma’lumotlaridan (CIF fayllari) olingan va bitta nuqtali hisoblash uchun kirish fayllari Avogadro dasturidan foydalangan holda tayyorlangan. Bundan tashqari, xuddi shu hisoblash [Co(C₉H₆NO)₃] kompleksi uchun uning MO energiyasini [Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ MO energiyalari bilan taqqoslash uchun amalga oshirildi. O‘rganilayotgan komplekslar uchun ESP sirtini hisoblash uchun MultiWFN dasturi yordamida amalga oshirildi va natijalar VMD dasturiy paketi yordamida vizualizatsiya qilindi.


[Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ va [Ni₂(C₉H₆NO)₂(NO₃)₂(H₂O)₂] komplekslarning uchta spin-elektron holatidagi umumiy (nisbiy) energiyalari (kkal/mol)

Kompleks	Singlet	Triplet	Quintet
Co(C ₉ H ₆ NO) ₃]C ₂ H ₄ O ₂	-1908231.24 (≡0)	-1908202.94 (28.3)	-1908186.67 44.57)
[Ni ₂ (C ₉ H ₆ NO) ₂ (NO ₃) ₂ (H ₂ O) ₂]	-2938514.71 (34.89)	-2938543.59 (6.01)	-2938549.60 (≡0)


[Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ kompleksida kobalt atomining III valentligi tufayli juft elektronlar (yopiq tizim) mavjud. [Ni₂(C₉H₆NO)₂(NO₃)₂(H₂O)₂] kompleksi tarkibidagi Ni(II) kationi ham juft elektronlar soniga ega (yopiq tizim). Bunday yopiq qobiqli tizimlar, odatda, singlet holati bilan tafsiflanadi. Biroq, ligand molekularining tabiatiga qarab, triplet va quintet elektron holatlar ham ma’lum. Shuning uchun ham ikkala kompleksning umumiy energiyalari UHF/DFT-D3BJ/

def2-TZVP usulidan foydalangan holda bir nuqtali hisoblash yo‘li bilan singlet, triplet va quintet elektron holatlarida aniqlandi (5-jadval).

$[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$ kompleksi va $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]$ kompleksining FMO energiyasiga (-5.04 va -1.97 eV) nisbatan yuqori HOMO energiyasiga (-5.23 eV) hamda past HUMO darajalariga (-2.05 eV) ega. Bundan tashqari, $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$ kompleksidagi HOMO va LUMO darajalari orasidagi energiya bo‘shlig‘i sirka kislotasi mavjudligi ushbu kompleksda barqarorlashtiruvchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi. $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$ kompleksining HOMO si pi tipidagi MO bo‘lib, Co d - orbitalining MO ga qo‘shgan hissasi 5 % dan kam. Ammo kislorod atomlarining p-orbitalining HOMO ga qo‘shgan hissasi katta (taxminan 20%). HOMO va LUMO dagi elektron zichligi asosan xinolin fragmentini lokalizatsiya qilinadi (6-rasm, a).



6-rasm. FMO $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$ (a) va $[\text{Ni}_2(8\text{-HQ})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ (b) da FMO energiyalari va elektron zichligi.



7-rasm. $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]$ (a), $[\text{Co}(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_3]\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$ (b) va $[\text{Ni}_2(8\text{-HQ})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ (c) ning ESP yuzasi

$[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksining α va β HOMO energiyalari bir-biridan biroz farq qiladi (6-rasm, b). Lekin $[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksining α va β LUMO energiyalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ikkala HOMO ham pi tipidagi MO lar bo‘lib, Ni d- orbitallarining kam hissasi (6%). Kompleksning α -LUMO to‘liq pi anti bog‘li MO, β -LUMO esa d-tipli MO bo‘lishi, u asosan kompleksdagi ikkita nikel atomining d-orbitallari (d_{Z^2}) tomonidan hosil qilinganligini anglatadi (7-rasm, b).

Molekulararo ta’sirlashuvlarda elektronodonor va elektronoakseptor markazlarni aniqlash uchun elektrostatik sirt potentsiali (ESP) tahlili o‘tkazildi. Elektrostatik sirt potentsiali (ESP) tahlili molekulaning elektronga boy va elektron yetishmaydigan markazlarini tavsiflovchi kuchli parametrdir. Ushbu kompleks birikmalarning ESP sirtlari 7-rasmda ko‘rsatilgan. ESP yuzasida ko‘k rangli sathlar (musbat raqamlar) maksimal bo‘lib, elektron kam markazlarini ko‘rsatadi. Qizil sathlar (manfiy raqamlar) minimal bo‘lib, bu markazlar elektronga boy.


Erituvchilar ta’sirida kvant-kimyoviy ko‘rsatgichlarning gaz fazaga nisbatan o‘zgarishini o‘rganish maqsadida ORCA 5.03 dasturida SRSM usulida dielektrik singdiruvchanligi 20.7, 24.3, 32.63 va 80.4 bo‘lgan, etanol, metanol va suv muhitida hisoblashlar bajarildi. Hisoblashlar natijasida solvatlanish jarayonida

termodinamik (ΔH , ΔG va ΔS) parametrlarning o'zgarishi aniqlandi. 6-jadvalda nikel kompleksi uchun hisoblangan.

6 -jadval

[Ni₂(C₉H₆NO)₂(NO₃)₂(H₂O)₂] kompleksning ayrim erituvchilarda solvatlanish jarayonidagi fizik-kimyoviy ko'rsatgichlari

Erituvchi (ε)	ΔH , kkal /mmol	ΔG , kkal/mol	ΔS , kkal/mol
Gaz (0)	-29384 99.61	-29385 49.60	49.99
Atseton(20.7)	-29385 33.46	-29385 83.32	49.86
Etanol (24.3)	-29386 34.16	-29385 83.62	50.54
Metanol(32.63)	-29386 34.42	-29385 84.05	50.37
Suv (80.4)	-29386 34.48	-29385 84.80	49.68



8-rasm. [Ni₂(C₉H₆NO)₂(NO₃)₂(H₂O)₂] va [Co(C₉H₆NO)₃]C₂H₄O₂ komplekslarining solvatlanish jarayonida Gibbs erkin energiyasining o'zgarishi. ΔG (gaz)=0.


7-jadval

Erituvchilar ta'sirini SRSM usulida inobatga olgan holda [Ni₂(C₉H₆NO)₂(NO₃)₂(H₂O)₂] kompleksi uchun hisoblangan kvant -kimyoviy parametrlar

Kvant -kimyoviy parametrlar	Gaz	Atseton	Etanol	Metanol	Suv
E_{tot} , kkal/mol	-2938 549. 60	-2938583. 32	-2938583. 62	-2938584.05	-2938584. 80
E_{HOMO} , eV	-6.07(-6.0 0)	-5.94(-5.84)	-5.94(5.84)	-5.93(5.84)	-5.93(-5.84)
E_{LUMO} , eV	-2.31 (2.58)	-1.98 (2. 50)	-1.97(2.50)	-1.97(2.50)	-1.96(-2.50)
$ \Delta E =E_{HOMO}-E_{LUMO}$, (eV)	3.77(3.42)	3.96(3.34)	3.97(3.34)	3.96(3.34)	3.97(3.34)
Ionlanish potentsiali, $I=-E_{HOMO}$, (eV)	6.07(6.00)	5.94(5.84)	5.94(5.84)	5.93(5.84)	5.93(5.84)
Elektronga moyillik $A=-E_{LUMO}$, (eV)	2.30(2.58)	1.98(2.50)	1.97(2.50)	1.97(2.50)	1.96(2.50)
Elektromanfiylik $\chi = (I + A)/2$ (eV)	4.18(4.29)	3.96(4.17)	3.95(4.17)	3.95(4.17)	3.94(4.17)
Kimyoviy qattqlik, $\eta = (I - A)/2$ (eV)	1.88(1.71)	1.98(1.67)	1.98(1.67)	1.98(1.67)	1.98(1.67)
Kimyoviy potentsial, $\mu_p=-(I + A)/2$ (eV)	-4.18 (4.29)	-3.96(-4.17)	-3.95(-4.17)	-3.95(-4.17)	-3.94(-4.17)
Kimyoviy yumshoqlik $\sigma = 1/(2\eta)$ (eV ⁻¹)	0.27(0.29)	0.25(0.30)	0.25(0.30)	0.25(0.30)	0.25(0.30)
Elektrofillik indeksi, $\omega=\mu_p^2/2\eta$ (eV)	4.94(6.29)	4(5.62)	3.94(4.67)	3.94(4.67)	4.65(5.21)


Qavs tashqarisidagi kattaliklar α MO, ichkarisadagilar β MO

$[\text{Ni}_2(\text{C}_9\text{H}_6\text{NO})_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksi kristallidagi molekulararo ta'sirlashish energiyalari Mercury 2023.3.0 dasturi yordamida hisoblandi. 9.22 Å, 7.42 Å, 8.28 Å, 12.27 Å, 10.84Å, 12.51 Å masofalarda joylashgan molekularning ta'sirlashish energiyalari mos ravishda -60.2 kJ/mol, -55.0 kJ/mol,-28.2 kJ/mol, -11.9 kJ/mol, -11.6 kJ/mol,-2.4 kJ/molni tashkil etadi (9-rasm). Ta'sirlashish energiyalarining har xilligini kompleksning zichligiga va molekulaning tarkibiga bog'liqligi bilan izohlash mumkin. Umumiy ta'sirlashish energiyasi -253.0 kJ/molni tashkil etdi.



9-rasm.


